



**SODDALASHTIRILGAN BANKROTLIK ISHLARIDA
MOLIYALASHTIRISH MODELINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING
SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI**

<https://doi.org/10.70728/conf.susta.v02.i01.012>

Azimov Saidumar

Taxoff Partners MCHJ SMT

azimovsaidumar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqiladigan bankrotlik ishlarida sud tugatish boshqaruvchilarini moliyalashtirish modelida amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlil qilingan. Shu o'rinda, 2022 yil 13 aprelda qabul qilingan O'RQ-763-sonli qonun asosida sud tugatish boshqaruvchilarining oylik ish haqi va bankrotlik jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyoti bekor qilinib, mazkur to'lovlarni da'vogar tomonidan da'vo arizasi bilan bir vaqtda amalga oshirish tartibi joriy etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur moliyalashtirish modelining o'zgarishi sud boshqaruvchilari faoliyatida moliyaviy uzilishlarni kamaytirish, bankrotlik ishlarini yuritishda uzluksizlikni ta'minlash hamda tugatish jarayonlari samaradorligini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatgani ilmiy-amaliy jihatdan baholanadi. Maqolada yangi tartibning huquqiy asoslari, amaliyotdagi qo'llanilishi va yuzaga kelayotgan ayrim muammoli jihatlar tahlil qilinib, bankrotlik institutini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Soddallashtirilgan bankrotlik, sud tugatish boshqaruvchisi, moliyalashtirish modeli, bankrotlik islohoti, budjet yuki, da'vogar to'lovi

Bankrotlik instituti iqtisodiyotda davlat, biznes va kreditorlar manfaatlari o'rtasidagi murakkab huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu institutning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, bankrotlik tartib-taomillarining aniq, shaffof va moliyaviy jihatdan barqaror tashkil etilishiga bog'liq. Ayniqsa, soddallashtirilgan bankrotlik ishlarida sud tugatish boshqaruvchilarining roli markaziy ahamiyat ega bo'lib, ularning faoliyati bankrotlik jarayonining o'z vaqtida va sifatli yakunlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud tugatish boshqaruvchilarining samaradorligi ko'p jihatdan ularning mehnat haqi va bankrotlik jarayoni bilan bog'liq xarajatlarning o'z vaqtida moliyalashtirilishiga bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirishdagi uzilishlar tugatish ishlarining kechikishiga, prosessual muddatlarning buzilishiga va ayrim hollarda bankrotlik jarayonlarining samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, sud




boshqaruvchilarini moliyalashtirish mexanizmining huquqiy va iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirilishi bankrotlik instituti barqarorligining muhim sharti hisoblanadi.

Davlat soliq inspeksiyasining qarzdorni soddalashtirilgan tartibda bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga asosan bankrot deb topilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning sud boshqaruvchisiga qarzdor joylashgan joydagi davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining qaroriga muvofiq har bir yakunlangan tugatishga doir ish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining (O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti) tegishli byudjeti mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yetti barobari miqdorida mukofot to'lanadigan tizim mavjud bolgan.

Shuningdek, qarzdorni soddalashtirilgan tartibda bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga asosan bankrot deb topilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning sud boshqaruvchisiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qoplangan qarzdorlik summasining besh foizi miqdorida (huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvarag'idagi mablag'lar bundan mustasno) qo'shimcha mukofot to'langan.

1-rasm.

Bankrot deb topilgan korxonlar soni (2021-2025) [1]



1-rasmida 2021-2025-yillar kesimida bankrot deb hisoblangan korxonlar soni keltirilgan. 2022- 2023 yillarda barqaror intitutsional moslashuvi yuzaga kelgan, ya'ni bu davrda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, korxonalar tomonidan qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish amaliyotining ustuvorligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining natijasida bankrot bo'lgan korxonlar soni 2021-yilga nisbatan 5,97 va 18 foizga oshgan.

2024-yil O'zbekiston Respublikasida qonunchiligida keskin tizimli burilish bo'ldi. Buning natijasida bozor iqtisodiyotidagi zaif subyektlarni keskin kamaytirish ishlari olib



borilgan, shu qatorda bankrot deb hisoblanga korxonalar soni 5486 tani tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan 19,5 foizga o'sgan.

2025-yilda ko'plab sabablar natijasida bankrotliklar sonining 2024-yilga nisbatan 57% dan ortiq oshishi oddiy statistik o'sish emas, balki strukturaviy o'zgarish belgisidir.


Ayrim sabablar:

- ❖ to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartishlar;
- ❖ sud amaliyotining liberallasuvi;
- ❖ soliq qarzdorliklari bo'yicha murosasiz yondashuv;

2021-2025-yillarda O'zbekistonda bankrotlik holatlarining ko'payishi inqiroz emas, balki bozor iqtisodiyotining institutsional yetilishi, huquqiy mexanizmlarning faollashuvi va moliyaviy intizomning kuchayishi natijasidir.

2-rasm.

Budjet sarf xarajati miqdori (2021-2025)[1]



2-rasmda budjet sarf xarajatlari miqdori 2021-2025-yillar oralig'ida tahlil qilindi. Bunda 2021-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sud boshqaruvchisiga haq to'lash uchun sudning depozit hisobvarag'iga mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yetti baravari miqdorida va undirilgan to'lovlarning 5 foizi miqdorida mukofot puli sifatida qo'shimcha to'lov beriladigan tizim mavjud bo'lgan.

2023-yilda esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.02.2019 yildagi PQ-4146-son qarorida qarzdor jismoniy shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili va (yoki) boshqa qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilganda, agar qarzdor bilan boshqacha kelishuv belgilangan bo'lmasa, sud boshqaruvchisiga haq to'lash xarajatlari qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik haqida ish qo'zg'atish to'g'risida ariza bergan soliq organi tomonidan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravori miqdorda haq to'lash bo'yicha



qonunchilikka uzgartirish kiritilgan[2].

Natijada, 2023-yilda budjet sarf xarajat miqdori 2021-yilga nisbatan 80,47%ga va 2024-2025-yillarda esa bazaviy hisoblash miqdori va bankrot deb topilgan korxonalar soni ko'paygani sababli budjetdan xarajat 74,47%, 54,83% ga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot natijalari soddalashtirilgan tartibdagi bankrotlik ishlari doirasida sud tugatish boshqaruvchilarini moliyalashtirish modelining o'zgarishi bankrotlik institutining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berdi. 2022 yil 13-aprelda qabul qilingan O'RQ -763-sonli qonun bilan sud tugatish boshqaruvchilarining oylik ish haqi va tugatish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish amaliyotidan voz kechilib, mazkur to'lovlarni da'vogar tomonidan da'vo arizasi kiritilishi bilan bir vaqtda to'lash mexanizmining joriy etilishi bankrotlik jarayonlarining moliyaviy va tashkiliy barqarorligini kuchaytirdi[3].

Bunda, sud boshqaruvchisiga haq to'lash uchun sudning depozit hisobvarag'iga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida oldindan to'lov amalga oshiriladi.

2021–2025 yillar kesimida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyalashtirishning oldindan kafolatlanishi sud tugatish boshqaruvchilarining faoliyatida uzluksizlikni ta'minlab, tugatish jarayonlari bilan bog'liq xarajatlarda yuzaga keladigan moliyaviy uzilishlarning oldini olmoqda. Natijada bankrotlik ishlarini yuritish muddatlari qisqargan, protsessual buzilishlar kamaygan hamda tugatish ishlarining o'z vaqtida yakunlanish darajasi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Umuman olganda, soddalashtirilgan bankrotlik ishlarida sud tugatish boshqaruvchilarini moliyalashtirishni davlat byudjeti hisobidan amalga oshirishdan voz kechib, da'vogar tomonidan da'vo arizasi bilan bir vaqtda to'lash mexanizmini joriy etish amaliyoti (O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 13-apreldagi "To'lovga qobilyatsizlik to'g'risida"gi O'RQ-763-sonli qonuni) bankrotlik institutini takomillashtirish yo'lidagi muhim va samarali islohot sifatida baholanishi mumkin. Mazkur yondashuv sud tugatish boshqaruvchilari ish samaradorligini oshirish, tugatish xarajatlarida uzilishlarning oldini olish hamda bankrotlik jarayonlarining institutsional barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi
<https://davaktiv.uz/uz/sud>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.02.2019 yildagi PQ-4146-son



<https://lex.uz/docs/-4188754>

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2022 yildagi O‘RQ-763-son <https://lex.uz/docs/-5957612>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2023–2025 yillardagi o‘zgartirishlar bilan). <https://lex.uz/docs/4674902>.
5. O‘zbekiston Respublikasi “To‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/584459>